

## MINTAQALARARO IQTISODIY TAFOVUTLARNI O'LGHASH KO'RSATKICHLARI

Ro'ziboyeva Mushtariy Otabek qizi – Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi  
( [mushtariy1899@gmail.com](mailto:mushtariy1899@gmail.com) )

**Annotatsiya.** Mazkur ishda mintaqalararo iqtisodiy tafovutlarni o'lchashda qo'llaniladigan iqtisodiy, ijtimoiy, infratuzilmaviy va demografik ko'rsatkichlar tizimi kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda yalpi hududiy mahsulot, investitsiyalar, bandlik va mehnat unumdorligi kabi makroiqtisodiy indikatorlar bilan bir qatorda, aholi daromadlari, kambag'allik darajasi va inson kapitali ko'rsatkichlari ham chuqur o'rganilgan. Shuningdek, transport, raqamli va energetika infratuzilmasi hamda demografik omillar — aholi o'sishi, migratsiya va urbanizatsiya jarayonlarining hududiy rivojlanishga ta'siri yoritilgan.

**Kalit so'zlar.** Iqtisodiy ko'rsatkichlar, ijtimoiy ko'rsatkichlar, infratuzilma rivoji, demografik omillar, yalpi hududiy mahsulot, bandlik darajasi, migratsiya, urbanizatsiya.

**Аннотация.** В данной работе на основе комплексного подхода проанализирована система экономических, социальных, инфраструктурных и демографических показателей, используемых для измерения межрегиональных экономических различий. В исследовании наряду с макроэкономическими индикаторами, такими как валовой региональный продукт, инвестиции, занятость и производительность труда, подробно рассмотрены показатели доходов населения, уровня бедности и человеческого капитала. Также освещено влияние транспортной, цифровой и энергетической инфраструктуры, а также демографических факторов — роста населения, миграции и урбанизации — на региональное развитие.

**Ключевые слова.** Экономические показатели, социальные показатели, развитие инфраструктуры, демографические факторы, валовой региональный продукт, уровень занятости, миграция, урбанизация.

**Abstract.** This study analyzes the system of economic, social, infrastructural, and demographic indicators used to measure interregional economic disparities through a comprehensive approach. The research examines macroeconomic indicators such as gross regional product, investments, employment, and labor productivity, alongside in-depth analysis of population income, poverty levels, and human capital metrics. In addition, the study considers transport, digital, and energy infrastructure, as well as

demographic factors—including population growth, migration, and urbanization—and their impact on regional development.

**Keywords.** Economic indicators, social indicators, infrastructure development, demographic factors, gross regional product, employment rate, migration, urbanization.

Hududlar o'rtasidagi iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlar zamonaviy iqtisodiyotning eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Har qanday mamlakatda tabiiy resurslar taqsimoti, ishlab chiqarish salohiyati, infratuzilma rivoji va inson kapitalining hududlar bo'yicha turlicha shakllanishi natijasida iqtisodiy tafovutlar yuzaga keladi. Ushbu tafovutlar nafaqat iqtisodiy samaradorlikka, balki aholi farovonligi, ijtimoiy barqarorlik va hududiy siyosat samaradorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli mintaqalararo iqtisodiy tafovutlarni aniq o'lchash va ularni ilmiy asoslangan mezonlar yordamida baholash hududiy rivojlanishni boshqarishning muhim instrumenti hisoblanadi.

Mintaqalararo tafovutlarni baholash jarayonida eng muhim masala — mos ko'rsatkichlar tizimini shakllantirishdir. Chunki hududlar rivojlanish darajasini faqat bitta indikator orqali aniqlash mumkin emas. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy tafovutlarni kompleks baholashda makroiqtisodiy, ijtimoiy, demografik va infratuzilmaviy ko'rsatkichlarning o'zaro uyg'un tizimi qo'llanilishi zarur. Ayniqsa, yalpi hududiy mahsulot hajmi va uning jon boshiga nisbati iqtisodiy faollik darajasini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkich sifatida keng qo'llanadi. Shu bilan birga, investitsiya oqimi, mehnat unumdorligi va bandlik darajasi hududning iqtisodiy salohiyatini chuqurroq baholash imkonini beradi.

Ijtimoiy ko'rsatkichlar esa iqtisodiy rivojlanish natijalarining aholi turmush darajasida qanday aks etayotganini aniqlashga xizmat qiladi. Aholi daromadlari, kambag'allik darajasi va ishsizlik ko'rsatkichlari hududiy tengsizlikning ijtimoiy jihatlarini ochib beradi. Bundan tashqari, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari hududlar rivojlanishining barqarorligini baholashda muhim mezon hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotlarda iqtisodiy tafovutlarni o'lchashda infratuzilma rivojlanganligi, xususan transport tarmoqlari, raqamli texnologiyalar va energetika ta'minoti darajasi ham tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Tafovutlarni baholashda nafaqat ko'rsatkichlar to'plamini tanlash, balki ularni tahlil qilish metodologiyasi ham katta ahamiyatga ega. Statistik va iqtisodiy-matematik usullar hududlar o'rtasidagi farqlar darajasini miqdoriy ifodalash imkonini beradi. Variatsiya koeffitsienti hududlar ko'rsatkichlari tarqalish darajasini aniqlashga xizmat


qilsa, Gini koeffitsienti iqtisodiy notenglik darajasini baholashda keng qo'llanadi. Theil indeksi esa tafovutlarni tarkibiy qismlarga ajratib tahlil qilish imkonini beruvchi muhim analitik vosita hisoblanadi. Ushbu usullarni qo'llash hududiy siyosatni shakllantirishda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish imkonini yaratadi.

Baholash mezonlarini ishlab chiqishda kompleks yondashuv muhim hisoblanadi. Chunki hududiy rivojlanish ko'p omilli jarayon bo'lib, uni bir nechta indikatorlarning integratsiyalashgan bahosi orqali aniqlash maqsadga muvofiqdir. Shu nuqtai nazardan, integral indekslar tizimini shakllantirish hududlarni rivojlanish darajasi bo'yicha guruhlash va ustuvor yo'nalishlarni aniqlash imkonini beradi. Bunday yondashuv mintaqaviy siyosatning maqsadli va samarali amalga oshirilishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mintaqalararo iqtisodiy tafovutlarni o'lchash ko'rsatkichlari va baholash mezonlarini chuqur o'rganish hududiy rivojlanish jarayonlarini ilmiy asosda tahlil qilish, resurslarni optimal taqsimlash va ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta'minlash uchun zarur metodologik asosni yaratadi. Shu bois mazkur bo'limda hududiy tafovutlarni o'lchash indikatorlari tizimi va ularni baholash mezonlari kompleks yondashuv asosida ko'rib chiqiladi.

### 1-jadval

#### Asosiy mintaqalararo iqtisodiy tafovutlarni o'lchash ko'rsatkichlari



1. **Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar.** Yalpi hududiy mahsulot mintaqaning jami iqtisodiy faolligini ko‘rsatuvchi eng asosiy ko‘rsatkichlardan biridir. U ma’lum davr mobaynida hududda yaratilgan barcha yakuniy tovar va xizmatlar qiymatini aks ettiradi. YaHM hudud iqtisodiy salohiyati, ishlab chiqarish hajmi va bozor faolligi haqida umumiy tasavvur beradi. Mintaqalararo taqqoslashda YaHM hajmi hududlarning iqtisodiy og‘irlik markazini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Jon boshiga YaHM - mazkur ko‘rsatkich iqtisodiy rivojlanish darajasini aholiga nisbatan baholash imkonini beradi. YaHMning yuqori hajmi har doim ham aholi farovonligi yuqori ekanini anglatmaydi, shuning uchun jon boshiga ko‘rsatkich hududlar o‘rtasidagi real iqtisodiy tafovutlarni aniqlashda ancha aniq indikator hisoblanadi. U hududiy siyosatda tenglashtirish choralari belgilashda keng qo‘llanadi.

Shuningdek, investitsiyalar mintaqaning kelajakdagi iqtisodiy o‘shish salohiyatini ifodalaydi. Kapital qo‘yilmalar hajmining yuqoriligi ishlab chiqarish modernizatsiyasi, yangi ish o‘rinlari yaratilishi va innovatsion faoliyat kengayishini anglatadi. Hududlar o‘rtasida investitsiya oqimlarining notekis taqsimlanishi iqtisodiy tafovutlarning chuqurlashishiga olib kelishi mumkin. Bandlik darajasi esa hudud iqtisodiyotining mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini ko‘rsatadi. Yuqori bandlik darajasi iqtisodiy faollik va daromadlar barqarorligini bildiradi. Ushbu ko‘rsatkich hududiy mehnat bozori holatini baholash hamda iqtisodiy siyosat samaradorligini aniqlashda muhimdir.

Mintaqalararo iqtisodiy tafovutlarni aniqlashda foydalaniladigan yana bir ko‘rsatkich bu mehnat unumdorligidir. Mehnat unumdorligi ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining band aholiga nisbati orqali aniqlanadi. Bu indikator hududda texnologiya darajasi, ishlab chiqarish samaradorligi va inson kapitali sifati haqida muhim ma’lumot beradi. Yuqori unumdorlik odatda yuqori daromad va iqtisodiy raqobatbardoshlik bilan bog‘liq bo‘ladi.

2. **Ijtimoiy ko‘rsatkichlar.** Aholining o‘rtacha daromadlari hududiy farovonlik darajasini aks ettiruvchi asosiy mezonlardan biridir. Daromadlar miqdori nafaqat iqtisodiy rivojlanish, balki iste’molchilarning talabi va ularning hayot sifati darajasini ham belgilaydi. Hududlar kesimida daromadlar farqi ijtimoiy tengsizlikning muhim ko‘rsatkichi hisoblanadi. Shuningdek, kambag‘allik darajasi iqtisodiy o‘shish natijalari aholining barcha qatlamlariga qanchalik taqsimlanayotganini ko‘rsatadi. Yuqori kambag‘allik darajasi hududiy rivojlanishning inklyuziv emasligini bildiradi. Ushbu indikator hududiy ijtimoiy siyosat samaradorligini baholashda muhim ahamiyatga ega. Ishsizlik esa mehnat bozoridagi muvozanatni aks ettiradi. Uning yuqori darajasi hududda iqtisodiy faollik pastligi yoki strukturaviy muammolar mavjudligini

ko'rsatadi. Ishsizlik ko'rsatkichi iqtisodiy barqarorlik, migratsiya jarayonlari va ijtimoiy xavfsizlik bilan chambarchas bog'liq. Shu bilan birga, inson kapitali sifati hududiy rivojlanishning uzoq muddatli omili hisoblanadi. Ta'lim darajasi mehnat resurslari malakasini belgilasa, sog'liqni saqlash ko'rsatkichlari mehnat unumdorligi va aholi umr davomiyligiga ta'sir qiladi. Ushbu indikatorlar hududiy rivojlanishning barqarorligini baholashda muhimdir.

**3. Infratuzilma ko'rsatkichlari.** Transport infratuzilmasi hudud iqtisodiy integratsiyasi va bozorlar bilan bog'lanish darajasini belgilaydi. Yo'l tarmoqlari sifati, yuk tashish hajmi va logistika markazlari mavjudligi hududning investitsion jozibadorligini oshiradi. Transport rivoji hududiy tafovutlarni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi. Zamonaviy iqtisodiyotda internet qamrovi, raqamli xizmatlar va axborot texnologiyalari rivojlanganligi hududlarning raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omilga aylanganligi ham iqtisodiy tafovutlar qay darajada ekanligini yaqqol namoyon qiladi. Raqamli infratuzilmaning rivoji innovatsiyalar, elektron savdo va xizmatlar sektorining kengayishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, barqaror energiya ta'minoti ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlaydi. Elektr energiyasi va boshqa energiya resurslariga kirish imkoniyatlari hududiy iqtisodiy faoliyatning asosiy shartlaridan biridir. Energetika infratuzilmasidagi tafovutlar hududlar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblikni kuchaytirishi mumkin.

**4. Demografik ko'rsatkichlar.** Birinchi navbatda, aholi soni va uning o'sish sur'ati hududning demografik salohiyatini ifodalaydi. Aholi sonining barqaror o'sishi ichki iste'mol bozorining kengayishiga, mehnat resurslari taklifining ortishiga va ishlab chiqarish hajmining ko'payishiga xizmat qiladi. Biroq haddan tashqari yuqori o'sish ijtimoiy infratuzilma va bandlik tizimiga bosim o'tkazishi mumkin. Shu sababli aholi o'sish sur'atini iqtisodiy imkoniyatlar bilan uyg'un holda tahlil qilish muhimdir.

Demografik jarayonlarning asosiy ko'rsatkichlaridan biri tug'ilish va o'lim darajasi hisoblanadi. Tug'ilish darajasi hududning reproduktiv salohiyatini aks ettirsa, o'lim darajasi sog'liqni saqlash tizimi, turmush sifati va ekologik sharoit bilan bog'liq omillarni namoyon etadi. Ushbu ikki ko'rsatkich o'rtasidagi farq tabiiy o'sish darajasini belgilaydi. Tabiiy o'sish ijobiy bo'lgan hududlarda yosh aholi ulushi yuqori bo'lib, uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanish uchun mehnat resurslari bazasi shakllanadi. Migratsiya ko'rsatkichlari hududlar o'rtasidagi iqtisodiy jozibadorlik darajasini baholash imkonini beradi. Ijobiy migratsiya balansi odatda ish o'rinlari ko'pligi, yuqori daromad darajasi va rivojlangan infratuzilma mavjudligini bildiradi. Aksincha, salbiy migratsiya oqimi iqtisodiy imkoniyatlarning cheklanganligini ko'rsatishi mumkin. Shu bois migratsiya ko'rsatkichlari hududiy tafovutlarni aniqlashda muhim indikator sifatida qo'llaniladi.

Hududiy rivojlanishni baholashda urbanizatsiya darajasi ham muhim o‘rin tutadi. Shahar aholisi ulushining ortishi sanoatlashuv va xizmatlar sektorining rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq. Urbanizatsiya iqtisodiy samaradorlikni oshirishi mumkin, biroq nazoratsiz urbanizatsiya infratuzilma muammolari va ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqarishi ehtimoli mavjud. Shuning uchun urbanizatsiya jarayonlarini muvozanatli boshqarish zarur.

Demografik ko‘rsatkichlar tizimida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan indikatorlardan biri — o‘rtacha umr davomiyligidir. Ushbu ko‘rsatkich aholi salomatligi, turmush sifati va ijtimoiy himoya darajasini aks ettiradi.

Shunday qilib, mintaqalararo iqtisodiy tafovutlarni o‘lchash va baholashda kompleks yondashuvni qo‘llash hududiy rivojlanishni boshqarish, resurslarni optimal taqsimlash va ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta‘minlash uchun zarur metodologik asos yaratadi. Makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, jumladan, yalpi hududiy mahsulot, investitsiyalar, bandlik darajasi va mehnat unumdorligi hududlarning iqtisodiy salohiyati va faolligini ko‘rsatadi. Ijtimoiy ko‘rsatkichlar – daromadlar, kambag‘allik darajasi, ishsizlik va inson kapitali sifati – iqtisodiy rivojlanish natijalarining aholi turmushiga ta‘sirini namoyon qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Todaro, M. P., & Smith, S. C. (2020). *Economic Development* (13th edition). Pearson.
2. World Bank. (2021). *World Development Report 2021: Data for Better Lives*. Washington, DC: World Bank.
3. O’Sullivan, A., & Sheffrin, S. M. (2021). *Economics: Principles, Applications, and Tools* (11th edition). Pearson.
4. Gini, C. (1912). *Variabilità e Mutabilità*. Bologna: Tipografia di Paolo Cuppini.
5. Theil, H. (1967). *Economics and Information Theory*. Amsterdam: North-Holland Publishing.
6. Fujita, M., Krugman, P., & Venables, A. J. (2001). *The Spatial Economy: Cities, Regions, and International Trade*. MIT Press.
7. United Nations. (2019). *World Urbanization Prospects: The 2018 Revision*. New York: UN Department of Economic and Social Affairs.
8. Barro, R. J., & Sala-i-Martin, X. (2004). *Economic Growth* (2nd edition). MIT Press.
9. Smith, A. (1776). *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. London: W. Strahan and T. Cadell.